



ILMIY ELEKTRON JURNAL

RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZM SOHASI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Toshmurza Rahmonov

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Raqamli iqtisodiyot kafedrasi dotsenti

Amriddin Hamdamov

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tayanch doktoranti

adonis29051992@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada raqamli iqtisodiyotning dunyoda turizm sohasining rivojlanishiga ta’sir qilish xususiyati va mexanizmlari ochib berilgan. Turizm sohasida raqamlashtirish bo‘yicha tadqiqotlarning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, aynan turizm sohasida raqamli integratsiya resurslaridan foydalanish yaqqol namoyon bo‘lmoqda: bu raqamlashtirish jarayonining mohiyatini tushunishni osonlashtiradi. Ikkinchidan, aynan eng yangi texnologik yutuqlardan foydalanish samaradorligi turizm kompaniyalarining raqobatbardoshligini belgilaydi va shu nuqtai nazardan raqamli texnologiyalarning ushbu sohadagi ishlab chiqarish jarayonlariga ta’sirini o‘rganish juda katta amaliy ahamiyatga ega.

Аннотация

В статье раскрыты особенности и механизмы влияния цифровой экономики на развитие туризмом отрасли в мире. Актуальность исследований в области цифровизации туризма определяется несколькими факторами. Во-первых, именно в сфере туризма наглядно проявляется использование цифровых технологий: это облегчает понимание сути процесса оцифровки. Во-вторых, именно эффективность использования новейших технологических достижений определяет конкурентоспособность туритмых компаний, и в этом контексте изучение влияния цифровых технологий на производственные процессы в этой области имеет огромное практическое значение.

Abstract

The article reveals the nature and mechanisms by which the digital economy affects the development of the tourism industry in the world. The relevance of research on digitization in the field of Tourism is determined by several factors. First of all, it is in the tourism sector that the use of digital technologies is clearly manifested: it makes it

easier to understand the essence of the digitization process. Secondly, it is the effectiveness of using the latest technological advances that determines the competitiveness of tourism companies, and from this point of view, the study of the impact of digital technologies on production processes in this area is of great practical importance.

Kalit so‘zlar

raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, turizmni raqamlashtirish, turizm sektori uchun raqamli texnologiyalar.

Ключевые слова

цифровая экономика, оцифровка, оцифровка туризма, цифровые технологии для туризмого сектора.

Keywords

digital technologies for the digital economy, digitization, tourism digitization, tourism sector.

Kirish

Xalqaro turizm sohasi 2020 yilgacha jahon iqtisodiyotida eng tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan va eng daromadli biznes turi hisoblanib, jahon yalpi ichki mahsulotining 10,4 %, har 1/10 ish o‘rni, jahon eksportining 30 %si, jahon xo‘jaligi yalpi investitsiyalaridagi ulushi 7 %ni, soliq tushumlarining 5 %ni, jahondagi iste’molchilik xarajatlarining 11 %ga va eng asosiy jihatni esa har 16 ta yangi yaratilayotgan ish o‘rnining bittasi aynan turizm sohasining hissasiga to‘g‘ri kelgan. 2020-2021 yillar mobaynida davom etgan COVID-19 pandemiyasi jahon mamlakatlari turistik sektorida chuqur inqiroz yuz berishiga olib keldi. 2019 yilda xalqaro turistlar soni 1,5 mld. kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilda esa bu ko‘rsatkich 381 mln. kishiga teng bo‘lib, 4 barobarga ya’ni 74 % ga qisqargan. Qolaversa, turizm sektori daromadi yil davomida 1,3 trln. AQSH dollariga, sektordagi ish joylari esa 100 mingdan 200 minggacha qisqardi. Shu bilan birga, 2021 va 2022 yillarda bu qisqarish sur’atlarining pasayganligini ham ko‘rish mumkin. Mavjud so‘nggi rasmiy ma’lumotlarga asoslanib, 2023 yilda pandemiyagacha bo‘lgan darajaning 88 %ini tashkil etdi, bunda 1,3 mldga yaqin xalqaro sayyoohlар tashrif buyurildi [1].

2020 yil 28 apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4699-son Qarori va 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2023 yil 24 maydagi “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-162-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi [2].

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot usullari

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasini rivojlantirishga oid adabiyotlarda turizm infratuzilmasini takomillashtirish va rivojlantirish borasida, xorijlik yetakchi

olimlardan Dmitrios Buhalis “raqamli turizmni elektron turizm, smart turizm atamalari bilan bir xil ekanini ta’kidlab, elektron turizm bu tashkilotlarga turizm, sayohat, mehmondo’slik va umumiy ovqatlanish sohalaridagi samaradorlikni oshirishga imkon beradigan barcha jarayon va xizmat zanjirlarini raqamlashtirishdir” [3] deb ta’riflagan bo‘lsa, A.Durrant esa raqamli turizmni muzeylar, qishloq joylari, hayvonot bog‘lari va tematik bog‘lar kabi turli yo‘nalishlarda qo‘llanilish afzalliklariga e’tibor qaratishgan [4]. Rossiyalik olimlardan N.Morozova va M.Morozovlarning fikricha “Turizmda raqamli texnologiyalar — zamonaviy turizm sanoatida yangi elektron texnologiyalarning joriy etilishi turistik biznesning bozor amaliyotida istalgan turmahsulotni yaratish va sotish texnologiyasini, transport vositalarini erishish va turistlarni joylashtirish imkoniyatlari haqida malumotlarni taqdim etish, joylarni tez bronlashtirish va rezervlashni ta’minalash, hamda turistik xizmatlarni (chiptalar, hisoblar va yo‘nalish bo‘yicha ko‘rsatmalar kabi hujjatlarni parallel rasmiylashtirish, hisob-kitob va ma’lumotnomali axborotlar bilan ta’minalash va boshqalar) taqdim etishda qo‘srimcha vazifalarni yechishni avtomatlashtirishni ta’minalaydigan tizimlarni yaratishdan iborat” [5], L.A.Rodigin va E.L.Rodiginlarning “Turizmda internet texnologiyalari va mehmondo’slik” nomli o‘quv qo‘llanmasida Internet va protokollarni yaratish haqida to‘liq ma’lumot bergenlar. Bu qo‘llanmada biz Internetni yaratishda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni olishimiz mumkin standart manbalarni manzillash tizimini ishlab chiqish (URL - Yagona Resurs Locator) va ma’lumot almashish qoidalari – TCP (Transmission Control Protokol) protokollari va IP (Internet Protokol), odatda birqalikda ishlatiladi va ma’lum TCP/IP nomi bilan qo‘llaniladi [6] deb o‘z ilmiy izlanishlarida ham turizmga oid hamda uni rivojlantirish muammolari bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirib, uning nazariyasini boyitish va zamonaviy amaliyotini shakllantirishga munosib hissa qo‘sish.

O‘zbekistonda turizm sohasi rivojlantirish masalalari bo‘yicha, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.SH.Safarov, M.T.Aliyeva kabi iqtisodchi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Shuningdek, O.Q. Xurramovning “Turizm rivojiga taaluqli barcha sohalarda innovatsion ma’lumot olish manbalarini joriy qilish va ularni jadal takomillashtirish raqamli makonni shakllantirib, undan samarali foydalanish nafaqat mahalliy sayohatchilar, balki xorijiy sayyoohlар uchun ham muhim omillardan biri sanaladi” [7], A.N.Norchayev esa “Xizmat ko‘rsatishda raqamli iqtisodiyot-yangi ishlab chiqiladigan yoki joriy qilinishi lozim bo‘ladigan jarayon emas, bu turizmda innovatsion texnologiyalarni turistlarning kundalik hayotiga joriy etish orqali mavjud xizmatlarni yangicha ko‘rinishga o‘tkazish” [8], degan fikrlari ayniqsa hozirda asosiy masalaga yechim sifatida ko‘rish mumkin.

Ayni paytda qaysi sohaga nazar tashlamaylik, “**raqamli**” so‘ziga duch kelamiz va bugungi kun talabi xam shunday muxitni yaratishga undamoqda. Turizm sohasini rivojlantirish uchun uning faoliyatiga eng so‘ngi rusumdagи texnik-uskunalarini, dasturiy ta’minot maxsulotlarni joriy qilish, ishchi-xodimlar uchun qulay shart-sharoit yaratib berish, inson faoliyatida raqamli texnologiyalarning imkoniyat darajasidan samarali foydalanish, raqobatbardoshlikka mos holda xizmat ko‘rsatuvchi korxonani yaratmasak, har qancha urinmaylik turizm biznesidan foyda olaolmaymiz.

Turizm faoliyatida raqamli texnologiyalar rivojini to‘rtta asosiy bosqich bo‘yicha to‘laroq tushunish mumkin(1-jadval):

1-jadval.

Turizmni raqamli texnologiyalar orqali raqamlashuv bosqichlari [9].

| 1-bosqich 1990-2000 yillar | 2-bosqich 2000-2010 | 3-bosqich 2010-2020 | 4-bosqich 2020 yildan xoziргacha |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Mobil telefonlar Elektron kassalar Moliyaviy dasturiy ta'minot Elektron pochta Internet Ofis dasturiy ta'minot Videokonferensiyalar Veb-saytlar (Booking.com,Expedia.com) Destinatsion kartalar | Smart telefonlar Kompyuter grafikasi dasturlari Onlayn bron qilish tizimlari Elektron pochta orqali marketing | Mobil ilovalar Ijtimoiy tarmoqlar QR-kod Face ID Zoom platformasi | Virtual va kengaytirilgan reallik Bulutli texnologiya Blokchayn Narsalar interneti Big Data Sun'iy intellekt |
| Optimallashtirish, savdo hamda marketing bosqichi | Raqamli infratuzilmani va biznes ekotizimlarini yaratish bosqichi | Tizimlarning integratsiyasi va raqamli modellarning joriy etilish bosqichi | Raqamli o'zgarishlar bosqichi |


Turizmda axborot texnologiyalarining tarqalishi bir qancha qo'shimcha ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va siyosiy omillarga bog'liq. Axborot texnologiyalarining yakka o'zi turizm xizmatlarining "yangi kombinatsiya-lari"ni yarata olmaydi, albatta texnologiyalarning bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy, institutsional, siyosiy va madaniy omillar bilan qo'shilishigina tovar va xizmatlar, metod va bozorlarning yangi kombinatsiyalarini yaratilishiga olib kelishi mumkin. Telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish va interfeyslar shunga ko'maklashadiki, axborot tizimlaridan bevosita sayohatchini foydalana oladi. Agar tizim to'g'ri qo'llanilayotgan bo'lsa, axborot texnologiyalari xizmatning yuqori sifatini ta'minlaydi, shunday qilib, mijozlarning talabi to'laroq qondiriladi. Lekin yuksak texnologiya bilan zarur darajadagi shaxsiy e'tibor o'rtaida muayyan muvozanatni saqlab turish talab etiladi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Turizm sohasida rivojlangan davlatlarning xizmatlari va mahsulotlarini ishlab chiqarishda muammolar sferasining vaqtini tejash bosqichidan o'tib, rivojlanishning keyingi bosqichlariga qadam qo'yishgan.

Turizm faoliyatida raqamli texnologiyalarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha joriy etish mumkin:

- yangi turizm mahsulotlarini ishlab chiqish;
- turizm bozorining yangi segmentini yaratish;
- mavjud turizm mahsulotlarini takomillashtirish;
- turizm resurslardan maksimal foydalanish imkoniyati;
- mijozlar bilan ishlashda yangi texnologiyalardan foydalanish;
- turizm korxonalari boshqaruvida yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish.



1-rasm. Turizmni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar [10]

Natijalar

2022-yilda turizmni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalangan mamlakatlarda iqtisodiyot va turizm sanoatining raqamli turizm sanoatida o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari taqqoslangan.

**2-jadval.
Xorij davlatlarining raqamli o'sish statistikasi* [11]**

| Davlat nomi | Raqamli iqtisodiyotning o'sishi (%) | Turizmni raqamlashtirish darajasini o'sishi (%) |
|-----------------|-------------------------------------|-------------------------------------------------|
| Janubiy Koreya | 8,2 | 42,0 |
| Yaponiya | 7,8 | 20,0 |
| Shveytsariya | 7,8 | 12,0 |
| Xitoy | 6,5 | 33,0 |
| AQSH | 6,4 | 25,0 |
| Shvetsiya | 6,2 | 50,0 |
| Kanada | 5,1 | 14,0 |
| Fransiya | 4,8 | 12,0 |
| Buyuk Britaniya | 4,1 | 15,0 |
| Braziliya | 4,1 | 22,0 |
| Germaniya | 3,6 | 22,0 |
| Belgiya | 3,5 | 25,0 |

*Manba: <https://infocom.uz/raqamli-texnologiyalarning-turizm-sohasiga-tasiri>

Jahon amaliyotida korxonalarining samaradorligini baxolashda raqamli texnologiyalar asosida boshqaruvini tashkil qilish turizm sanoatida ham muxim

xisobdanadi. Bu korxonalarning boshqaruv organlari ishining ajralmas qismi bo‘lib, buning asosida quyidagilarga erishish mumkin:

- ❖ raqamli texnologiyalarning rivojlanish yo‘nalishi korxonaning biznes maqsadlari va vazifalariga mos kelishligini ta’minlashi;
 - ❖ (raqamli texnologiyalardan korxonaning barcha faoliyatida, shuningdek boshqaruv jarayonlarida samarali foydalanish tufayli foyda ko‘rishi;
 - ❖ raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali boshqaruv va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi risklarni pasaytirishda boshqaruv jarayonlarini ta’minlashgaga;
 - ❖ korxonaning barcha xarakatlar faoliyatida axborotlar almashinuvining tezlashishini;
 - ❖ korxona faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hisob-kitob va hisobotlar yuritilishining avtomatlashishi, aniqlanishligi va shaffofligini ta’minlashi;
- korxonaning barcha faoliyatida komplayens – nazorat tizimi talablari darajasida ishlashga va bunday sharoitda inson omilining kamayishini va korrupsiyaning oldini olishga va uni kamaytirishga xizmat qiladi;

Xulosa

Raqamli iqtisodiyotning zamonaviy turizm sohasiga raqamli texnologiyalarini joriy etilishi bilan ulkan o‘zgarishlarga ega bo‘ladi. Har qanday firmani turizm bozorida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilmasdan muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi amaliyotda mumkin emasligi yaqqol isbotini topmoqda.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, raqamli texnologiyalar milliy turizm korxonalarimiz o‘rtasida raqobatbardoshlikni oshirish, iqtibolda korxona ishchi xodimlarining mehnat unumdorligini oshirish va dasturiy-texnik vositalarga qilinayotgan harajatlarni kamaytirish, turistik korxona mijozlariga zamonaviy raqamli xizmatlarini taklif etish va mavjudlarini o‘z mijozlari talablari asosida takomillashtirish, mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatish, hamda turli moddiy ko‘rinishdagi rag‘batlantirishlarni amalga oshirishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib beradi. Shu boisdan milliy turizm sohasini istiqbolda raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://www.unwto.org>. World Tourism Barometer and Statistical Annex
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4699-son Qarori
3. Buhalis, D. (2003): eTourism: Information technology for strategic tourism management, Pearson (Financial Times/Prentice Hall), London ISBN 0582357403.
4. Durrant A, Golembewski M, Kirk D, Benford S, Fischer J, Rowland D, McAuley D (2011) Automics: souvenir generating photo ware for theme parks. In: Proceedings of the 2011 annual conference on Human factors in computing systems. ACM, New York, pp 1767–1776
5. Н.Морозова, М.Морозов, Информационное обеспечение туризма. Учебник. Москва, КноРус, 2016 год. стр.7
6. Л.А.Родигин., Е.Л.Родигин, Интернет-технологии в туризме и гостеприимстве. Лекции: учеб. пособие / РМАТ.М: Советский спорт. 2014.208 стр.

7. O.Q. Xurramov., O‘zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirish imkoniyatlari., “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 3/2022, may-iyun (№ 00059). DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss3/a
8. A. Norchayev. Turizmda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy qilish yo‘nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2020 yil
9. Mualliflar ishlanmasi
- 10.Tadqiqotlar natijasida mualliflar ishlanmasi
- 11.Raqamli rivojlanish indeksi (DESI) va <https://infocom.uz> sayti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi